

## OLIJ HARBIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURSANTLARNI SALBIY AXBOROT TA'SIRIDAN HIMOYA QILISHNING DOLZARB MASALALARI

**Raxmatov Jasur Xamidulloyevich**

*O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa Universiteti Bosh shtab fakulteti Ichki ishlar vazirligi qo'shinlarini tayyorlash kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Maqolada harbiy ta'lim tizimida kursantlarni salbiy axborot ta'siridan himoya qilish bilan bog'liq dolzarb masalalar yoritiladi. Zamonaviy axborot muhitida yuzaga kelayotgan salbiy ta'sirlarning ta'lim jarayoniga ta'siri ko'rib chiqiladi hamda ushbu muammoni pedagogik jihatdan hal etish zarurati asoslanadi.*

**Kalit so'zlar:** *harbiy ta'lim, kursantlar, salbiy axborot ta'siri, pedagogik yondashuv, himoya masalalari.*

**Аннотация:** *В статье освещаются актуальные вопросы защиты курсантов от негативного информационного воздействия в системе военного образования. Рассматривается влияние современного информационного пространства на образовательный процесс и обосновывается необходимость педагогического подхода к решению данной проблемы.*

**Ключевые слова:** *военное образование, курсанты, негативное информационное воздействие, педагогический подход.*

**Annotation:** *The article addresses topical issues of protecting cadets from negative information influence in the military education system. It examines the impact of the modern information environment on the educational process and substantiates the need for a pedagogical approach to addressing this problem.*

**Keywords:** *military education, cadets, negative information influence, pedagogical approach.*

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni salbiy axborot ta'siridan himoya qilishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalasi harbiy-ma'naviy tarbiya tizimining nazariy va amaliy jihatlarida dolzarb ilmiy yo'nalish bo'lib, u zamonaviy axborot makonida shakllanayotgan mafkuraviy tahdidlar, g'oyaviy diversiyalar va axborot urushlari sharoitida milliy xavfsizlik konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ushbu konsepsiya Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asarida yanada chuqurlashib, harbiy sohada xizmat qiluvchi yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ularni axborot xurujlariga qarshi intellektual va psixologik tayyor holatda tarbiyalash orqali davlat xavfsizligining barqaror poydevorini yaratish zarurligi asoslab beriladi. Mazkur yondashuv harbiy ta'limda kursantlarni mustaqil fikrlash, axborot manbalarini tanqidiy tahlil etish, milliy qadriyatlarga sodiqlik va g'oyaviy qat'iyat asosida tarbiyalashni pedagogik jarayonning ustuvor yo'nalishiga aylantiradi. Shu tariqa, harbiy ta'limda salbiy axborot ta'siriga qarshi pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish nafaqat shaxsiy mafkuraviy immunitetni shakllantirish,

balki milliy xavfsizlikning ma'naviy-psixologik himoya tizimini mustahkamlashning ilmiy asosini ham tashkil etadi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni salbiy axborot ta'siridan himoya qilish muammosi bugungi globallashuv va axborot oqimlari jadallashgan davrda harbiy-pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur muammoni o'rganish borasidagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, ularning psixologik barqarorligini mustahkamlash hamda axborot tahdidlariga qarshi himoya mexanizmlarini rivojlantirish masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli aspektlarda yoritilgan.

Xususan, M.X.Rustambayev va S.M.Selemanova milliy gvardiya organlari faoliyatining nazariy-huquqiy tahlilida jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlashda axborot omillarining o'rni hamda davlat xavfsizligi bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. K.A.Haydarov mudofaa tizimida axborotning psixologik tizimini ta'minlash mexanizmini ochib berar ekan, harbiy sohada axborot-psixologik tahdidlarga qarshi psixologik himoya tizimining zarurligini asoslaydi. Shu bilan bir qatorda, R.Samarov axborotning psixologik xavfsizligini ta'minlashga oid metodik yondashuvlar orqali o'quv-tarbiyaviy jarayonlarda axborot immunitetini shakllantirish yo'llarini ko'rsatadi. Sh.I.Paxrutdinov globallashuv va axborot almashinuvi sharoitida mediata'limning ahamiyatini yoritib, media savodxonlikni mafkuraviy himoya omili sifatida talqin qiladi. S.M.Xodjayev axborotlashtirish tizimining genezisini tahlil etar ekan, jamiyatda axborot maydonini boshqarishning institutsional mexanizmlarini yoritadi, M.Quronov esa internet makonida yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi axborot oqimlari va media firibgarlik hodisalarini tahlil qiladi.

Shuningdek, O.O.Sirojov va A.N.Nazarov axborot siyosati va siyosiy barqarorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib berib, milliy manfaatlarni himoya qilishda axborot xavfsizligining rolini asoslaydilar. M.M.Muhammadsidiqov diniy axborot oqimlarining siyosiylashuvi va uning ijtimoiy ongga ta'sir mexanizmlarini tahlil etib, ekstremistik axborot tahdidlariga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi. A.Raxmanov esa yurt tinchligi va barqarorligini ta'minlashda ta'lim-tarbiya tizimining ahamiyatini yoritib, harbiy-patriotik tarbiyaning axborot xavfsizligi bilan bog'liqligini asoslaydi.

Shu bois, mavjud ilmiy manbalar tahlili kursantlarni salbiy axborot ta'siridan himoya qilish masalasining nazariy, huquqiy, psixologik va pedagogik asoslarini yoritgan bo'lsa-da, oliy harbiy ta'lim tizimi sharoitida ushbu jarayonni kompleks, tizimli va kasbiy-pedagogik asosda o'rganish zarurati hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda.

Oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni salbiy axborot ta'siridan himoya qilish muammosi so'nggi yillarda axborotlashgan ta'lim tizimi rivoji bilan bog'liq holda keng ilmiy tahlil etilmoqda.

U.Sh.Begimqulov ta'lim jarayonini axborotlashtirishning boshqaruv mexanizmlarini yoritgan bo'lsa, T.T.Kalekeeva bo'lajak informatika o'qituvchilarining axborot madaniyatini rivojlantirish orqali axborot xavfsizligi kompetensiyasini shakllantirishni ta'kidlaydi.

M.Quronov esa kiberxavfsizlikni milliy xavfsizlik tizimiga integratsiyalash zaruratini asoslab, uni ta'lim jarayoniga tatbiq etishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyatini ochib beradi.

Shuningdek, O.G'.Davlatov tarixiy-madaniy meros asosida axborot xavfsizligi kompetensiyasini rivojlantirishni ma'naviy immunitet shakllantirishning samarali yo'li sifatida ko'rsatadi.

B.N.Tahirov va S.K.G'aniyev va boshqalar axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga oid uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqqan bo'lib, ularning g'oyalari kursantlarni zararli axborot tahdidlariga qarshi ongli himoyaga tayyorlash jarayonida muhim metodik asos yaratadi. Ushbu ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur muammo pedagogik, axborot-kommunikativ va ma'naviy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, aynan harbiy ta'lim kontekstida kursantlarni salbiy axborot ta'siridan himoya qilish mexanizmlarining kompleks pedagogik modeli hali to'liq ishlab chiqilmagan.

Zamonaviy axborotlashgan davrda oliy harbiy ta'lim muassasalarida kursantlarni salbiy axborot ta'siridan himoya qilish pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, harbiy ta'limning asosiy vazifasi kursantlarda tanqidiy tafakkur, media savodxonlik va psixologik barqarorlikni shakllantirish orqali ularni axborot-psixologik bosimlarga bardosh bera oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir.

Bu yondashuv Martin tomonidan ilgari surilgan tezkor axborot tahlili tamoyillari hamda Phillips tomonidan asoslangan insonning moslashuv qobiliyatlari nazariyasi bilan uyg'unlashib, kursantlarning axborot immunitetini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu tariqa, tanqidiy fikrlash, ma'naviy qadriyatlar va axborot madaniyati integratsiyasi harbiy ta'lim tizimida axborot xavfsizligini ta'minlovchi ilg'or pedagogik model sifatida namoyon bo'ladi.

### **XULOSA**

Harbiy ta'lim tizimida kursantlarni salbiy axborot ta'siridan himoya qilish masalasi zamonaviy axborot muhitida pedagogik jihatdan dolzarbdir.

Ushbu muammo ta'lim va tarbiya jarayoni doirasida pedagogik yondashuv asosida ko'rib chiqilishi zarur.

Kursantlarni salbiy axborot ta'siridan himoya qilishga oid masalalarga e'tibor qaratish harbiy ta'lim tizimida ushbu yo'nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonini axborotlashtirish. – Toshkent: Fan, 2007.
3. Paxrutdinov Sh.I. Mediata'limning pedagogik ahamiyati. – Xalq ta'limi, 2017, №2.

4. Samarov R. Axborot tahdidlarining ijtimoiy-pedagogik jihatlari. – Toshkent, 2015.
5. Tahirov B.N. Axborot xavfsizligi asoslari. – Buxoro: Fan va ta’lim, 2022.
6. Karimov M.M., Tashayev K.A. Axborot xavfsizligi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.